



TARIX FANINI O'RGANISHDA QADIMGI HINDISTON MADANIYATININGO'RNI VA AHAMIYATI

Toshqobilov Umid Sharofiddinovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası
3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5709422>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-noyabr 2021
Ma'qullandi: 10- noyabr 2021
Chop etildi: 15- noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

vedalar, adabiyot,
me'morchilik va san'at, din,
Sidxartxa Gautama, Budda,
Gandxara.

ANNOTATSIYA

*Maqolada Qadimgi tarixni o'rganishda juda boy va kerakli
arxivga ega bo'lgan Hindiston madaniyati haqida so'z boradi.*

KIRISH

Qadimdan biz bilamizki Hindiston kuchli va qudratli davlat. Hind madaniyati ham katta o'ringa egadir. Ko'p asrlar davomida taraqqiy qilib kelgan qadimgi hind madaniyati bir qator qo'shni xalqlar madaniyatining rivojlanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ko'pgina diniy to'plamlar saqlanib qolganligi sababli qadimgi hind xalqlarining dini to'g'risida ayniqsa yaxshi ma'lumotlarga egamiz. Qadimgi hind adabiyotining yodgorligi "Rigveda"ning minglab madhiyalari va so'nggi veda adabiyotlari oriylarning diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumotlar beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud emas. Xudolar samoda yashaydi. Oriylar xudolar tasviriga

sig'inganlar. Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bo'lmagan. Kohinlar yopiq tabaqa bo'lgan. So'nggi veda davrida kohinlar alohida toifa, braxmanlar varnasini tashkil qilganlar va boshqa varnalardan mavqelari yuqoriligiga da'vo qilganlar. Uch varnadan birortasining to'la huquqli a'zosi bo'lish uchun faqat bu varnada tug'ilish emas balki braxman o'quvchisining uyida o'qish va diniy sirlarni bilish huquqini bergan. Veda matnlarini o'qituvchidan o'quvchiga faqat og'zaki uzatganlar. Natijada vaqt o'tishi bilan matnlar mazmuni o'zgarib ketgan. Er.avv.I ming yillik o'rtalarida yangi diniy e'tiqodlar vujudga keldi. Ularning eng muhimi budda dinining „Uch qimmat“ I edi. Bu Buddaning o'zi, draxma uning ta'limoti va sangxa unga e'tiqod qiluvchilar jamoasi hisoblanadi. Budda dinining asoschisi Shaq'ya zodagon urug'iodan bo'lgan shahzoda Sidxartxa Gautama hisoblanadi.



Budda ta'limotining o'zig xos xususiyatlari u hayotni azoblanish deb tushuntiradi. Azoblanish o'lim va kasalliklar bilangina bog'liq emas, balki eng yaxshi bo'lib qayta tug'ilishlar zanjiri bilan bog'langan. Diniy urf-odatlar murakkablashib borishi bilan birga maxsus kohinlik ham vujudga kelib, bu kohinlik asta-sekin kastaga birlashib ketadi. Braxmanlarning alohida ideologiyasi paydo bo'ladi va braxmanlar kastasining mustahkam tashkiloti ham vujudga keladi.

MUHOKAMA

Qadimgi diniy to'plamlar – Vedalar, Diniy-filosofik faoliyat hiyla taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan sharh va izohlar bilan to'lib ketadi. Braxmanlar ta'limotiga ko'ra, faqat braxmanlar kastasiga mansub kishilargina muqaddas diniy marosimlarni o'tashi, odamlarga diniy ta'lim berishi mumkin bo'lgan. Keyinchalik vaqt otib qadimgi braxman dini va u bilan birga qadimgi kasta sistemasi ham sekin-asta o'z ichidan buzila boshlaydi. Qadimgi Hindiston adabiyotida markaziy o'rinni diniy adabiyot yodgorliklari egallaydi. Ularning eng qadimgiari vedalar, o'qituvchidan o'quvchiga og'zaki uzatilgan. Veda madhiyalarining katta qismi qurbonlik rasm-rusmlariga bag'ishlangan. Er.avv I-ming yillikning II yarmida budda adabiyoti shakllangan. Hindistonda yozuv nisbatan kechroq paydo bo'lgan. Uning ilk namunalaridan biri Ashoki yozuvlaridir. Qadimgi hindlar mantiq, til falsafasida katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha V asrda mashhur olim Ar'iyabxattaxa harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi.

NATIJA

Matematikada nolni kiritilishi, arab raqamlari deb aytiladigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi. Er.avv I asrlarida turli adabiy janrlar mavjud bo'lgan. Bu davrda mashhur dramaturg Shakun Kalidasa ijod qiladi. „Panchatatra“ deb atalgan kitobda masallar to'planadi, uning arabcha tarimasi Kalila va Dimna deb ataladi. Hind yozuvining eng qadimgi asarlari Shimoliy Hindistonda urug'chilik tuzumining yemirilishi davridan boshlab eng qadimgi quldorlik davlatlarining tashkil topishiga qadar ilmiy bilimlarning paydo bo'lishi va eng qadimgi tarkib topishini kuzatib borish imkonini beradi. Moxenjadaro va Xarappadagi katta shaharlar harobalaridan topilgan ieroglif yozuvlar shuni ko'rsatadiki, er.avv ming yillikdayoq Hindistonda o'ziga xos ravishda vujudga kelgan sur'atli yozuv mavjud bo'lgan. Hindistonda alfabit bo'g'inli yozuv III asrda tarqalgan. Kxaroshti yozuvidagi yozuvlar shu davrga oiddir, bu yozuv oromiy yozuvini qo'llanish negizida vujudga kelgan bo'lishi mumkin. Ashoka yozuvlarining ko'pi braxma yozuvining original qadimgi hind sistemasi ko'lamida yozilgan bo'lib, bu yozuvdan devapagari, shuningdek ko'p sonli boshqa hind alifbelarining ancha keying klassik sistemasi taraqqiy etgan. Maurilar davridan so'ng, g'isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha obidalar g'arbiy Hindistondagi budda monastrlari diqqatga sazovor. Maurilardan so'ng, haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari shimoliy-g'arbiy Hindistondagi Gandxara, shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxura va Dekan viloyatidagi maktablardir. Bu maktablar Hind tasviriy



san'ati asosida an'analari bilan ko'proq bog'langan. Ana shu maktablar asosida o'rta asrlar hind va janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandi.

XULOSA

Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qismi veda, epik va budda adabiyotlari an'anaviy janrlarga tegishli bo'lib, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab keldi. Tibbiyot fani ham rivojlangan. Bu tog'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar diniy

Veda to'plamlarida, jumladan Rigveda madhiyalarida va Atharvavedada saqlanib qolganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, lingvistika, falsafava mantiq kabi bir qator fanlarning rivojiga sabab bo'ldi. Diniy-sehriy dunyoqarash hukmronlik qilgan davrda qadimgi Sharqdagi boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, qadimgi hindularda ham fanning boshlang'ich formalari diniy chirmashib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent-2009.
2. A. Kabirov. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent-2018.
3. C.A. Xaydarov. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда
4. "Зафарнома"дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
5. Сулаймон Амиркулович Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671.
6. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.
7. Хайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.
8. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.
9. C.A. Хайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). 458-461.
10. Хайдаров Сулаймон Амиркулович. (2021). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги
11. «Scientific Progress» Scientific journal 1(3). 9-14.
12. Khaydarov S.A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. Conference Proceedings. Page 41-43.
13. Хайдаров. С. (2021). Ёшларда ватанпарварлик ҳиссини тарбиялашда "Бобурнома" асарига ишланган миниатюраларнинг аҳамияти. Халқаро илмий- амалий конференцияси тўплами. 33-37 б.
14. Хайдаров. С. (2021). Заҳриддин Муҳаммад Бобур хорижлик татқиқотчилар нигоҳида: подшоҳлик мўйқалами. Халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 43-46 б.